

O'ZBEKISTON HUDUDIDA ISTIQOMAT QILGAN IBTIDOIY ODAMLAR

Narzulloyev Farrux

Buxoro davlat universiteti

Tarix va yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12747866>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi davrlarda hozirgi O'zbekiston hududida istiqomat qilib kelgan ibtidoiy odamlarning manzilgohlari va ularning turmush tarzi va ular tanasining genetik tuzilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Ibtidoiy, Okladinokov, Neandertal, Alekseyev, Gerasimov, Teshiktosh, Zavtalashsoy, Seleng'ur, Islomov, Fergantrop.

Kirish. XX asrning boshlariga kelib inson o'zining asl tarixini va genetikasini o'rganish borasida juda katta kashfiyotlarni amalga oshirdi desak sira adashmagan bo'lamiz.

Bu kashfiyotlarni amalga oshirishda bevosita arxeologik tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. Tog' yonbag'ir hududlari, o'rmonlardan ibtidoiy odamlarning manzilgohlari bilan birgalikda ularning suyak qoldiqlarining topilishi insoniyat o'zining ajdodlari kim bo'lganligi haqidagi izlanishlarga turtki bo'ldi. Shunday odamlarning eng qadimgi tiplari hozirgi Afrika qit'asida uchramoqda. Uzoq yillik tadqiqot natijalarida shu narsa ma'lum bo'ldiki "Homo sapiens" (Aql idrokli odam) tipi inson evolyutsiyasining kutilmagan mahsuli ekanligi isbotlandi. Hozirgi kunda esa bu o'zgarma haqiqatga aylandi. Antropolog Glin Isaak : Homo Sapiensning qandaydir xususiyatlari tarixga bo'lgan qiziqishni ifodalaydi- deb ta'kidlab o'tgan edi. [Isaak, 1993. B.56] Hozirda ham O'zbekistonning shimoli-sharqiy va janubiy hududlarida ibtidoiy odamlarning manzilgohlari va suyak qoldiqlari topilmoqda.

Asosiy qism. Yer sayyoramiz tarixda bir nechta muzlik davrini boshdan kechirgan. Ammo yerda doim ham muzliklar bo'lmagan. Birgina Antarktidadan ko'mir topilishi fikrimizning isboti bo'ladi. Geologlarning fikricha yirik muzliklar davri muntazam 180-200 million yilda takrorlanadi. Ma'lumki muzliklar paydo bo'lishiga Yerda quyosh nurlarining kamayishi asosiy sabablardan biri bo'lgan. Ammo astronomlarning so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra yer so'vishiga u galaktika bo'ylab harakatlanayotganida koinotning ayrim qismlarida fazoning gaz va kosmik changlar tufayli quyosh nurlarining yerga yetib borishiga to'sqinlik qilgan. Bu hodisa fanda "kosmik qish" nomi bilan ataladi. So'nggi muzlik davri bundan 26 000-19 000 yil sodir bo'lgan.

Natijada yer yuzasining butun Shimoliy mintaqahududlari xususan, Shimoliy Amerika, Yevropaning shimoli, hozirgi Rossiya, Osiyoning shimoli (Mongoliya, Qozog'iston, Xitoy, qisman O'zbekistonga ham ta'siri mavjud). Muzlik boshlanishi yer yuzidagi barcha flora va faunalarga katta ta'sir qila oldi, sovuqqa jidamli katta hayvonlar shimolda hayot kechirib, issiqsevar jonzorlar esa janubga keta boshlagan. Ibtidoiy odamlar ham bundan mustasno emas. [Sagdullayev, 2017. B. 35] Endilikda ular sovuqdan saqlanish uchun o'zlariga tabiiy boshpana izlay boshladilar. Ibtidoiy odamlarning turar-joylari geografik joylashuviga qarab turlicha. Xususan, tog' yonbag'irlarida yashovchi odamlar g'orlarga, suv bo'yida yashovchi odamlar yer ostidagi sun'iy yerto'lalarda istiqomat qilishgan. Buyuk muzlik davri ilk paleolitning so'nggi davrida boshlanib, o'rta paleolit davriga kelib yerning katta qismini egallaydi. Bu davrda Neandertal tipdagi odamlar hayot kechirgan bo'lib, endilikda bu tip haqida batafsilroq ma'lumotlar bermoqchimiz.

1856-yil avgust oyida Germaniyaning Neandertal vodiysidagi Dussel daryosi yoqasida, Feldxofer g'orida kon ishchilari odamsimon mavjudodga tegishli suyaklarni topib olishga muvafaqq bo'lishadi.. Kon ishchilari tosh qotgan bosh chanog'ining qopqog'l, oyoq va qo'llarning ayrim suyaklarini matematika o'qituvchisi va o'lkashunos Karl Fulrottga olib kelishadi. Bu suyaklar Fulrot ko'rgan odam suyaklardan ancha farq qilgani bois uni Bonn universiteti anatomiya professori German Shaafgauzenga ko'rsatishga qaror qiladi. Topilgan suyaklar olimlar o'rtasida turli xil fikrlarni yuzaga kelishiga olib keldi. Ayrimlar uni odamning primitiv irqiga mansub desa, yana boshqalar uni kasalman kishiniki deb hisoblagan bo'lsa, Irland anatomi Uilyam King bu topilmani homo sapienslardan farq qilishini ta'kidlab unga 1864 yilda Neandertal odami degan nomni ilgari surdi.[Reich, 2018. B. 87]XIX asr oxirlariga kelib ko'plab qazilmalarda neandertal odamlarning suyaklarining topilishi neandertallarni alohida paydo bo'lganligini ko'rsatdi. 1890-yillarning boshlarida Ejen Dyubuaning pitekanthrop qoldiqlarini topilishi qadimiy odamlar bir necha turlarga bo'linishi mumkinligini ko'rsata oldi. Strasburg universiteti professori Gustav Shvalbe o'tgan asr boshlarida pitekanthrop va neandertal odamning ibtidoiy bosqichidan to zamonaviy odamgacha bo'lgan uzviy evolyutsiyon jarayonning bir qismidir deb ta'kidlab o'tgan edi.[Shvalbe, 1987.B.127] Ikki sababga ko'ra neandertallar ancha vaqt davomida odamning bevosita avlodi sifatida tan olinmay keldi: birinchi navbatda 1908 yilda La Shapel Sen makonidan topilgan neandertal suyaklarining noto'g'ri talqin qilinishi va 1912 yil topilgan, fan tarixidagi eng noaniq ilmiy topilma hisoblanuvchi Piltduan odami mashmashasi sabablidir. La Shapel Sen neandertal odamning suyaklari deyarli to'liq saqlanganligi bois neandertal anatomiyasini zamonaviy odamniki bilan solishtirish imkoni tug'ildi. Bu skelet Parijdagi Tabiiy Tarix Muzeyi xodimi Marsellin Budga jo'natiladi. M.Bud suyaklar yordamida neandertallarning tana tuzilishini tasvirladi. Ushbu rasmda neandertal bukri, qovurg'asi va tizzasi ham egik holda tasvirlangan edi. Tasvirlar ta'sirida shakllangan qarashlar zamonaviy odam evolyutsiyasini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi desak adashmagan bo'lamiz. 1912-yilda Piltdaun odamining sahnaga chiqishi ko'plab antropologlarning (albatta hammasini ham emas) uni zamonaviy odamning bevosita ajdodi sifatida tan oldi. Shu nuqtai nazardan presapiens (ilk sapiens) deb ataluvchi, inson evolyutsiyasi tarmoqqa bo'linganligi e'tirof etiluvchi teoreya rivojlanib bordi. Mazkur teoreya kuchli qarshiliklarga qaramasdan deyarli 50 yil davomida antropologik tafakkurda yetakchilik qilib keldi. Homo sapiens neanderthalensis- bundan 230-240 ming yil avval Yevropa va g'arbiy Osiyoda Isroildan to O'zbekistongacha bo'lgan hududlarda, ehtimol, Shimoliy Afrikada yashagan odamlar turi. Neandertallarning bo'yi o'rtacha 165 sm bo'lgan. So'nggi neandertallar bundan qariyb 24 ming yil muqaddam sovuqda qirilib ketgan. Neandertal nomi nemis teologi va kompozitori loxam Neandr sharafiga qo'yilgan. Buni 1858-yilda Shaafgauzen neandertal atamasini fanga olib kirdi. Janubiy Yevropa, Yaqin Sharq va O'zbekistongacha bo'lgan hududda neandertallar tarqalgan. Neandertallar Yevropada Germaniyadan, Fransiyadagi La-Shapel- O-Sen g'ori Qirimdagi Kiik - Koba g'ori, Gretsiyadagi pelepones Kavkazdagi Mezmay g'oridan, Isroildagi Karmel, Iroq Kurdistonidagi Shanidar g'oridan ham topilgan. Neandertallarning bo'yi 140 sm bo'lgan miya qutisining sig'imi 900-1800 sm³ gacha bo'lib, o'rtachasi 1380-1400 sm³ ga teng ekanligini hisobga olsak, ularning kallasi katta ekanligiga qanoat qilamiz. Neandertal odamlari kalla qutisining shakli birmuncha cho'zinchoq bo'lib, peshonasi qiya, boshining tepa qismi yassi, past bo'lishi ular uchun harakterlidir.[Shipman, 2015. 76.B]Shu bilan birga ularda qosh ustidagi qabartma ancha

oldinga turtib chiqqan. Neandertal odamlarining burun va yuqori jag' suyaklari juda kuchli rivojlangan. Ularda pastki jag' ham yaxshi rivojlanmagan bo'lib, unda baquvvat, lekin engak – dahan u qadar taraqqiy etmagan edi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining tog'oldi hududlarida ibtidoiy odamlarning manzilgohlari topilgan. XX asrning dastlabki choragida Surxandaryo viloyatining Boysun tog'larida neandertal odamlarning manzilgohi topildi. Boysun tog'lari – Pomir-Oloy sistemasida tarkibidagi Hisor tog'larining janubi-g'arbiy tizmasiga kiradi va O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismini, hamda qo'shni Tojikistonning bir qancha hududlarini o'z ichiga oladi. Bu yerdan oqib o'tadigan Machay-Daryoda tosh davrini o'rganish ishlari dastavval 1931 yilda G.V. Parfenov rahbarligidagi Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi Dastavval Machay g'ori ochilgan va uni tadqiq qilish bilan birga atrofdagi g'orlar va qoyalardan topilgan ayvonlar o'rganila boshlangan. 1938-1939 yillarda Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi bilan hamkorlikda A.P. Okladnikov boshliq sobiq SSSR FA MMTI ekspeditsiyasi Teshik-tosh g'orida izlanishlarni boshlagan va shu yili bu g'ordan neandertal bolaning qabri topilgan. Bir vaqtning o'zida atrofdagi boshqa g'orlar qidirilib, o'rganila boshlangan. A.P. Okladnikov o'zining asarlarida Teshik-tosh va Machay g'orlaridan tashqari, arxeologik materiallarga ega yana 6 ta g'orlar haqida ta'kidlab o'tadi. [Окладников, 1967.Б.135] Okladnikovning shogirdi Alekseyevning fikricha bu bola suyaklar qiz bolaga tegishli ekanligi aniqlandi. Neandertal bolaning tashqi ko'rinishini antropolog Gerasimov tomonidan tiklanib, uning kichik hajmdagi haykalini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi natijasida bu yerdagi tadqiqotlar to'xtatilib, olingan natijalarning katta qismi chop etilmasdan qoldi. 2002 yilgi qo'shma ekspeditsiyaning vazifalari qatoriga Teshik-tosh 2 g'or makonida stasionar qazish ishlarini o'tkazish, hamda o'rganilayotgan hududlarda qo'shimcha qidiruvlar olib borish kiritilgan edi. Ammo baxtga qarshi, A.P. Okladnikov va G.V. Parfenovlar tomonidan tilga olingan g'orlarning barchasini topishning imkoni bo'lmadi. Shunday bo'lsada, ekspeditsiya ishtirokchilari tomonidan ushbu hududlarda keng qidiruv ishlari olib borildi. 2003 yilgacha bu vohada faqat ikkita yodgorlik – Teshik-tosh hamda Amir-Temir g'orlari haqida ma'lumotlar mavjud edi. Bundan tashqari Farg'ona vodiysi hududlaridan ham so'nggi paleolit davriga oid manzilgoh ham topilgan. Vatanimiz hududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi Seleng'ur g'oridan va Toshkent viloyatining Ko'lbuloq makonida topildi.

Bu borada yetakchi arxeolog olimlar A.P. Okladnikov, O'. Islomov, M.R. Qosimov, V.P. Alekseyev, T.K. Xo'jayevlarning xizmatlari kattadir. O'. Islomov XX asrning 80-yillarida Seleng'ur g'orida arxeologik tadqiqotlar olib boradi (Dastlabki tadqiqot 1958-yilda Okladnikov tomonidan amalga oshirilgan). U g'ordan topilgan tosh qurollar va hayvon suyaklarini chuqur o'rganib, Seleng'urda yashagan odamlar g'orni ashel davrining dastlabki bosqichida o'zlashtirganliklarini isbotlaydi. Islomov tomonidan Seleng'ur g'oridan 40dan ortiq suyaklar topiladi. Suyaklarning asosini chag' va tishlar tashkil etardi. Arxeolog fikricha g'orda yashagan odamlarning yoshi yaqin bir million yil atrofida deb ta'kidlaydi. [Исломов, 1988. Б. 162] Seleng'ur odamining qoldiqlari Farg'ona vodiysi hududlarida topilganligi sababli fanga "Fergantrop odami" - "Fergantrop" nomi bilan kiritiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bizning yurtimiz O'zbekiston hududlari ham ibtidoiy odamlar uchun hayot kechirishda nihoyatda qulay ekanligini arxeologik manbalar orqali ko'ramiz. So'nggi yillardagi tadqiqotlar natijasiga tayangan holda shuni ayta olamizki,

Markaziy Osiyo hududlarida qadimda insoniyat tamaddunining beshigi sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

References:

1. Исламов У. И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур // Проблемы взаимодействия природы и общества в палеолите в Средней Азии : Тезисы конференции, посвященной 50-ю исследований стоянки Тешик-Таш. — Ташкент, 1988.
2. Батыров Б. Х., Батиров А. Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сель-Унгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. — Ташкент, 1988.
3. Исламов У. И., Крахмаль К. А.. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Ташкент: Фан, 1995 — 165-166 bet.
4. Вишняцкий Л. Б.. Палеолит Средней Азии и Казахстана. СПб.: Европейский дом, 1996 — 102-107 bet.
5. Shipman, P. (2015). "How humans and their dogs drove Neanderthals to extinction". The invaders: how humans and their dogs drove Neanderthals to extinction. Harvard University
6. Reich, D. (2018). "Encounters with Neanderthals". Who we are and how we got here: ancient DNA and the new science of the human past. Oxford University Press.
7. Окладников А. П. Утро искусства. — Л.: Искусство, 1967. — 135 с.
8. 8.Рогинский Я. Я. Внеевропейские палеоантропы // Ископаемые гоминиды и происхождение человека. М., 1966. Тешик-Таш. Палеолитический человек. М., 1949
9. 9.Окладников А. П. Мустьерская стоянка в гроте Тешик-таш в Узбекистане // КСИИМК — Вып. II. — 1939
10. Berdiev X., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T., 1991.
11. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 17-20.
12. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severnaya Baktريا Taxaristan problemi istorii i kulturi, T. «Fan», 1990.